

**MAKTABGACHA TA'LIMDA GENDER XUSUSIYATLARI**

*Asqarova Dilafruz Ibroximovna*

*Farg'onan davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqlada gender tenglikni oiladan boshlash masalalari atroficha bayon etilgan.

**Tayanch atamalar:** gender, jins, matn

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы начала гендерного равенства в семье

**Ключевые слова:** гендер, пол, текст

**Annotatsiya:** This article discusses the issues of starting gender equality in the family

**Keywords:** floor, tekst

Aytish joizki, keyingi paytlarda “gender tenglik “degan iborani tez –tez ishlatajigan bo‘ldik. Xo‘sish, gender tenglik o‘zi nima? Ko‘pchilik bu iborani eshitganda uni, albatta, ayollar bilan bog‘laydi. Ayonki, xotin-qizlar sayyoramiz aholisining yarmini tashkil etadi. Shunday ekan, gender tenglik, ya‘ni erkak va ayollarning teng huquqligi insonning eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi.Aynan shu omil jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta’minalash, barqaror rivojlanish asosida insoniy salohiyatni ro‘yobga chiqarishda muhim o‘rin tutadi.

Ayollarni davlat va jamiyat hayotiga keng jalb etish barcha sohadagi islohotlar samaradorligi hamda iqtisodiy o‘sishni ta’minalashi amaliyotda o‘z isbotini topgan haqiqat.Jinslar tengligiga erishish mohiyatan insonga shaxs sifatida namoyon bo‘lishga xalal beruvchi barcha ijtimoiy to’siqlarni o‘rganish va bartaraf etishdan iborat.Mana shu barcha tamoyil hamda yo‘nalishlar

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida mujassamlashgan.

Aslida, gender tenglik va u bilan bog‘liq barcha konstruktiv tamoyillar bilan tanishish,ularning mazmun-mohiyatini anglash uchun birgina mazkur hujjatni yaxshilab,mag‘zini chaqib mutolaa qilishning o‘zi kifoya.

Xususan, Qonunning 4-moddasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minalashning asosiy prinsiplari deb demokratizm xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minalashning asosiy prinsiplari deb demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymasligi, ochiqlik hamda shaffoflik belgilangan.

Jumladan, demokratizm tamoyili jinsidan qat‘i nazar hamma uchun barcha darajadagi ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish, sog‘liqni saqlash sohasida tegishli xizmatlarga ega bo‘lish, barcha siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy huquqlardan teng foydalanishni anglatadi.

Uning 5-moddasida “Jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik” deb nomlanadi. Bu juda muhim modda va unda ko‘plab bahs-munozaralarga barham beruvchi aniq normalar keltirilgan. Xususan, unda xotin-qizlar va erkaklar davlat tomonidan kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo‘lishi aniq qayd etilib, jins bo‘yicha kamsitish hisoblanmaydigan omillar keltirilgan. Bola tug‘ish va ona suti bilan oziqlantirish vazifalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda farqlarni belgilash, qonuniy tartibda muddatli harbiy xizmatga chaqirish, ushu qonun asosida gender siyosati amalga oshirilishini ta’minalashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko‘rish, xotin-qizlar hamda erkaklar mehnatini muhofaza qilishda ularning reproduktiv salomatligini saqlash shular jumlasidan.

Bundan tashqari,bularga yana majburiyatlar faqat muayyan jinsdagi shaxslar tomonidan bajarilishi mumkinligiga asoslangan holda kasbiy malakaga doir tavsiyalar berish. Erkaklar va

ayollar o'rtasida jismoniy va ruhiy jihatdan barqaror farqlar bor. Ularni hisobga olmaslik, avvalo, jamiyat rivojiga, millat genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Farzand tarbiyasi yoki oilada boquvchilik maqomiga kelsak, bu borada ham oila a'zolari kelishuviga ko'ra ijtimoiy "rollar"ni ortiqcha qiyinchiliksiz o'zgartirish mumkin. Eng asosiysi, er-xotin bunga rozi bo'lsa, fikrlari bir joydan chiqsa bas.

Aslida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi tug'ma fiziologik farqlar borligiga qaramay, gender ma'nosidagi farqlarning aksariyati jamiyatning ijtimoiy lashuvi hamda madaniyat rivojidan kelib chiqqan desak, adashmaymiz. Ya'ni xotin-qizlarning huquqlari qaysidir jabhalarda amalga oshmasligi ko'proq jamiyatda ildiz otgan qolib tushunchalar-stereotipler bilan bog'liq. Ularni o'zgartirish murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon. Buning uchun, avvalo, yosh avlodning, qolaversa, kattalarning ham dunyoqarashini to'g'ri shakllantirish lozim.

Darvoqe, bu masalalar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi loyihasida ham belgilangan. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, xotin-qizlar hamda erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashga qaratilgan ushbu hujjat jamoatchilik e'tiboriga havola qilinib, u bo'yicha keng muhokamalar o'tkazilishi rejalashtirildi. Aynan bu rejalarining tasdig'i sifatida Farg'ona davlat universitetida ham shu yilning 21 may kuni "Ayol va fan: gender jihatlar" mavzusida onlayn konfrensiya bo'lib o'tdi.

Umuman gender tenglikka erishish, avvalo, oiladan boshlanishi kerak. Oila yumushlariga ota-onalarda birdek munosabatda bulayotganligini ko'rib o'sgan farzandlarda, albatta, to'g'ri tasavvur shakllanadi, bu esa kelgusida ushbu yunalishda biz kutgan natijalarga erishishimizga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Askarova, D. (2022). FORMATION OF CREATIVITY AND BOOKREADERS QUALITIES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTION. Science and innovation, 1(B8), 1039-1044.
2. Askarova, D. I. (2022). The Role Of Folk Pedagogy In The Development Of Creativity Of Students Of Higher Educational Institutions. Oriental Journal of Social Sciences, 2(02), 89-96.
3. Dilafuz, A. (2022). Maktabgacha Yoshdag'i Bolalarda Va Oilada Gender Xususiyatlarni Shakllantirish Omillari. Innovation In The Modern Education System, 2(18), 183-189.
4. Asqarova, D. I., & Mahamadalievna, D. Y. (2021). MUALLIM.
5. Askarova, D. I. (2022). USE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(10), 92-97.
6. Askarova, D. I., & Jabborova, M. K. (2022). The Introduction Of Gender Issues In Preschool Education On The Example Of Folk Pedagogy. Oriental Journal of Social Sciences, 2(05), 81-87.